

**URUG‘LIK CHIGIT TAYYORLASHDAGI DOLZARB  
VAZIFALAR**

*Katta o‘qituvchi O.A.Salimov,*

*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti*

*Ushbu maqolada paxtachilikda urug‘chilik tizimini takomillashtirish va paxta xomashyosini yetishtirishda ilmiy-innovatsion yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.*

*В данной статье представлена информация о совершенствовании системы семеноводства в хлопководстве и использовании научно-инновационных подходов при выращивании хлопка-сырца.*

*This article provides information on improving the seed production system in cotton growing and the use of scientific and innovative approaches in growing raw cotton.*

Mamlakatimizda paxtachilik borasida katta tajriba to‘plangan. Ayniqsa, uni yetishtirishda, shuningdek, urug‘chilik va qayta ishlash sohalarida, xususan, g‘o‘zaning istiqbolli navlari yurtimizning katta hududlarida ekilinmoqda. O‘ziga xos qiyin sharoitda - tuprog‘i, suv yetkazib berish mashaqqati og‘ir, ob-havosi keskin o‘zgaruvchan bo‘lishiga qaramay paxtakorlar yuqori hosil olishga erishib kelmoqdalar.

Bugungi kunda ham O‘zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ulardan ishlab chiqariladigan mahsulotlar jahon bozori peshtaxtalarida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Buni birgina paxtachiligidan misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Hozirda mamlakatimizda har yili 1,1 million tonna paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 1,3 million tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvati mavjud. Kelajakda 1,5 million tonna paxta tolasini ishlash belgilangan.

Ushbu tolani o‘zimizda qayta ishlab, tayyor mahsulot shaklida jahon bozoriga olib chiqsak daromad bir necha barobarga oshishi tabiiy. Qolaversa, paxta o‘simgidan olinadigan yana yuzlab mahsulotlar ham borki, bularning barchasi iqtisodiy samarani bir necha barobarga oshiradi. Eng muhim, ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Shu maqsadda paxtachilikda zamonaviy samarador agrotexnologiyalarni qo‘llash va urug‘chilik tizimiga erkin bozor mexanizmlarini joriy etish orqali hosildorlikni keskin oshirish, paxta xomashyosini yetishtirishda ilmiy-innovatsion yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilangan [1].

- 2024-yildan boshlab tajriba-sinov tariqasida yuqori hosildor xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini olib kirish hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi paxta ekiladigan maydonlarida ekish;

-kelgusi yillarda ekish uchun xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini mahalliy sharoitda yetishtirishni tashkil etish;

-navlarning biologik va mexanik ifloslanishining oldini olish maqsadida g‘o‘za navlari ekilayotgan hududlarda nav joylashtirish tartibiga qat’iy amal qilish;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan g‘o‘za navlarini joylashtirishda kafolatlangan urug‘ ta’minotiga muvofiq erkinlik beriladi, bunda yuqori hosildor mahalliy navlarga ustuvorlik beriladi. Bir konturda uzuksiz 2 yil davomida bir navni joylashtirishga ruxsat berilmaydi. Hududlarda har 2 yilda ekilayotgan navni to‘la almashtirish, har yili tegishli nav urug‘ini boshqa hududlardan olib kelish orqali urug‘ almashtirish va yillik qo‘srimcha urug‘ zaxirasini yaratish bilan kelgusida bosqichma-bosqich “tindirilgan urug“” ekish amaliyoti joriy qilish;

-agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga - paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini yetishtirishda ularning aprobatasiyasini to‘g‘ri va o‘z muddatida o‘tkazish, urug‘liklarni tayyorlash, qayta ishslash hamda saqlashning xalqaro standartlar va texnik reglamentlarga muvofiqligini ta’minlash;

-urug‘chilikni rivojlantirish markaziga - xorijdan keltirilgan g‘o‘za navlarining urug‘chiligi bilan shug‘ullanuvchi subyektlarda vegetatsiya davrida paxta maydonlarida kamida uch marta, urug‘liklarni saqlash va qayta ishslash jarayonlarida doimiy monitoring yuritish, ularga yaqindan amaliy yordam ko‘rsatish, g‘o‘za navlarining bir maydonda uzliksiz 2 yildan ortiq ekilishining oldini olish maqsadida hududlar uchun muqobil yangi navlar urug‘chiligin tashkil qilish, hududlar o‘rtasida muqobil navlar urug‘larini qayta taqsimlab borish hamda yillik “tindirilgan urug‘lik” zaxirasini yaratish;

-paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tomonidan xorijdan keltirilgan g‘o‘za urug‘larining genetik tozaligini molekulyar-genetik tahlil qilish bo‘yicha mahalliy vakolatli laboratoriyalar xulosasi olinadi hamda barcha import qilinadigan g‘o‘za urug‘larining ekinboplik sifat ko‘rsatkichlari baholanadi.

Bunda, mahalliy va xorijiy urug‘chilik korxonalari hamda birlamchi urug‘chilik xo‘jaliklarining o‘zaro integratsiyalashuvi, g‘o‘za navlari va duragaylarining urug‘ ta’minoti va zaxirasi, hududlarga moslashganligi va muqobil nav takliflari, mavjud g‘o‘za navlari va duragaylari hosildorligi, ularni yetishtirish agrotexnologiyalari to‘g‘risida axborot olish, hududlar sharoitlaridan kelib chiqib erkin va shaffof joylashtirish, qayta taqsimlash hamda sertifikat olish imkoniyatlari yaratish belgilangan.

Shu bilan birga paxtachilik va g‘o‘za urug‘chiliga oid eng ilg‘or tajriba va muhim natijalarini doimiy tahlil qilib borish, yuqori hosildor g‘o‘za navlari va duragaylarini respublikamizga olib kelish, sohaga oid innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda urug‘lik chigitning sifat ko‘rsatkichlari taxlil qilinib borilishi lozim [2-5].

Urug‘lik chigitning avlodni bo‘yicha iflosligini, namligini, mag‘zining to‘liqligini, pishib yetilganligini va mexanik shikastlanmaganligini aniqlanadi [6].

Ekish uchun g‘o‘zaning yangi va istiqbolli navlarining elita hamda birinchi (R1), ikkinchi (R2) va uchinchi (R3) avlodli chigitlari ishlatilishi kerak. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining ruxsati bilan to‘rtinchi avlodlari (R4)

## ***Modern education and development***

---

urug‘lik chigitdan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Urug‘lik chigit 1-rasmda ko‘satilgan.



1-rasm. Urug‘lik chigit.

Unuvchanlik, namlik (namlikning massaviy ulushi), ifloslik (mineral va organik aralashmalarning massaviy ulushi), tukliligi, mexanik shikastlanganlik va qoldiq tolalik ko‘rsatkichlari bo‘yicha urug‘lik chigit 1-jadvalda keltirilgan meyorlarga munosib bo‘lishi kerak.

Urug‘lik chigit ko‘rsatkichlari

1-

jadval

Ko‘rsatkich nomlari	Meyori,%			
	tukli chigitlar uchun	kam chigitlar uchun	tukli chigitlar uchun	tuksizlan-tirilgan chigitlar uchun
Unuvchanlik, kamida	90,0	90,0	90,0	
Namlik (namlikning massaviy ulushi), ko‘pi bilan	10,0	10,0	10,0	
Ifloslik (mineral va organik aralashmalarning massaviy ulushi), ko‘pi bilan	0,7	0,5	0,3	
Tukliligi, ko‘pi bilan	-	2,5	0,5	
Mexanik shikastlanganligi, ko‘pi				

bilan	7,0	8,0	8,0
Qoldiqli toladorligi, ko‘pi bilan: -tukli chigitlar uchun -tabiiy tuksizlantirilgan chigitlar uchun	0,8 0,4		

Urug‘lik chigit unuvchanligi bo‘yisha uchta sinfga bo‘linadi. Urug‘lik chigitni ekishga tayyorlash quyidagilarga bo‘linadi:

- tukli (linterdan keyin);
- mexanik usulda tuksizlantirilgan;
- kimyo-mexanik usulda tuksizlantirilgan.

Namlik (namlikning massaviy ulushi), ifloslik (mineral va organik ifloslik aralashmalarining massaviy ulushi), tuklilik mexanik shikastlanganlik va qoldiq tolalik ko‘rsatkichlari bo‘yicha urug‘lik chigit meyorlarga mos bo‘lishi kerak.

Tukliliği bo‘yicha tuksizlantirilgan chigitlar tegishli tartibda tasdiqlangan namunalarga mos kelishi lozim.

Chigit kategoriyasi ifloslik, namlik yoki mexanik shikast- langanlik ko‘rsatkichlarining eng yomoni bo‘yicha aniqlanadi.

Tuksizlantirilgan urug‘lik chigitning ekish uchun mo‘ljallangan fraksiyasining o‘lchamlari bo‘yicha bir tekisliligi 94% dan kam bo‘lmasligi, to‘kilgan dorilash aralashmasining mavjudligi esa 0,5% dan oshmasligi kerak.

Tuksizlantirilgan urug‘lik chigit tayyorlash uchun unuvchanligi bo‘yicha faqat I va II sinfga tegishli chigitlarni ekishga ruxsat etiladi. Elita urug‘ini elita-urug‘chilik xo‘jaliklarida yetishtiriladi.

Urug‘lik chigitlarda begona aralashmalar, begona o‘t urug‘i, tirik zararkunanda va ularning tuxumi bo‘lishi man etiladi. Kuygan chigit mavjud urug‘lik chigit ekishga ruxsat etilmaydi. g‘o‘za chigitlari qoplarga joylanadi. Dorilanmagan chigitlar massasi 50 kg dan oshirilmasdan jun-kanop qoplarga solinadi yoki uch qavatli qog‘oz qoplarga massasi 25 kg dan oshirilmasdan

qoplanadi. Urug‘lik chigit nav tozaligi bo‘yicha 2-jadvalda ko‘rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

Urug‘lik chigitning nav tozaligi dala sharoitida ekib, o‘simpliklarning sofligini tasdiqlovchi nazorat hujjatlari asosida aniqlanadi.

Urug‘lik chigit nav tozaligi

2-jadval

Chigit avlodni	Nav tozaligi, kamida, %
Surperelita, Elita	100
R1	99
R2	98
R 3	96

Chigitni dorilash bo‘limi paxta tozalash korxonasi hududida joylashgan bo‘lsa (bunda bu bo‘lim, korxona bosh binodan 100 m uzoqlikda joylashishi kerak), hamma avlod urug‘lik chigitlarni bu bo‘limga uzatish uzlusiz ravishda yoki boshqa transport vositasida uyulgan holda amalga oshiriladi. Bu holda chigitlarning to‘kilishiga va shikastlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.. Urug‘lik chigitni saqlash 2-rasmda ko‘satilgan.



2-rasm. Urug‘lik chigitni saqlash.

Urug‘lik chigit quruq va yaxshi shamollab turiladigan omborlarda saqlanadi. Ochiq maydonchalarda urug‘lik chigitni saqlash man etiladi. urug‘lik

chigitning R2 va R3 avlodi dorilanguncha uyulgan holda atrofiga shu chigitdan qoplanib to‘siq yasalgan holda saqlanadi.

Shunday qilib paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirish vazifalarni samarali bajarilishi hisobiga paxta-to‘qimachilik klasterlarida paxta tolasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi va ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 dekabrdagi “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-391 sonli Qarori.
- 2.A.Salimov, Wang Hua, T.Tuychiyev «Technology and equipment for primary cotton processing» China, 2019 – p. 174.
- 3.Salimov A. “Birlamchi tola agrotexnikasi». O‘quv qo‘llanma. “Moliya- Iqtisod”, T. 2010, - 182 b.
- 4.R.Bo‘riyev, Q. Jumaniyazov, A. Salimov, B. Kushakeyev «Paxta tozalash korxonalarining zamonaviy texnika va texnologiyalari». O‘quv qo‘llanma. T.: «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ– 2015.
- 5.F.B.Omonov. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik (ma’lumotnomasi). T.: Voris, 2008. - 413 bet.
- 6.R.Bo‘riyev, Q.Jumaniyazov, A.Salimov, B.Kushakeyev «Paxtaning sifatini aniqlash». O‘quv qo‘llanma. T.: «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ– 2015.